



PORAXO'RLIK JINOYATLARINING SUB'EKTIIV BELGILARI

Ro'zimov Zafar Zokir o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti Korrupsiyaga qarshi kurashish va kompliens nazorati

yo'nalishi magistri

zafar5522a@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10021455>

ARTICLE INFO

Received: 12th Oktober 2023

Accepted: 18th Oktober 2023

Online: 19th Oktober 2023

KEY WORDS

Ayb, jinoyat, jazo, javobgarlik,
poraxo'rlik, sub'ekti,
pora, sub'ektiv tomon,
mansabdor, shaxs, xavf.

ABSTRACT

Mazkur maqolada muallif poraxo'rlik jinoyatlarining sub'ektiv belgilarining o'ziga xos jihatlariga to'xtalib o'tgan. Bundan tashqari, muallif maqolada O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Poraxo'rlik ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorini ham sharxlagan.

Jinoyatning sub'ektiv tomoni sub'ektning o'zi sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishiga nisbatan ruhiy munosabatini tavsiflaydi. U jinoyat sodir etish aybi, motivi va maqsadidan iboratdir.

Ayb – jinoyat sub'ektiv tomonining majburiy belgisidir. Aybsiz jinoyat tarkibi bo'lmaydi va bo'lishi mumkin emas. Bu jinoiy qilmishni jinoiy bo'lmagan qilmishdan farq qiladigan belgidir. Qonun chiqaruvchi aybga alohida ahamiyat beradi. Ayb uchun javobgarlik Jinoyat kodeksi prinsipi darajasiga ko'tarilgan. JKning 9-moddasiga muvofiq shaxs aybi isbotlangan ijtimoiy xavfli qilmishlari uchungina javobgar bo'ladi.

Aybdorlik javobgarligi prinsipi, A.V.Naumov odilona ta'rif qilganidek, inson xulq-atvorini to'g'ri yuridik va ijtimoiy-ma'naviy baholashning oddiy shartidir¹. Mazkur qoida ob'ektiv ayb qo'yishni, ya'ni aybsiz javobgarlik mumkin emasligini belgilaydi. A.S.Yakubovning to'g'ri bergan ta'rifiga ko'ra, javobgarlikka tortish va bunday hollarda jazolash maqsadsiz bo'lar edi, chunki ular "qasos olishdan" boshqa hech narsadan iborat bo'lmas edi².

Yuridik adabiyotda poraxo'rlik qasddan sodir etilgan jinoyat ekanligi inkor qilinmaydi. Ham pora olish-berish, pora olish-berishda vositachilik qilish to'g'ri qasd bilangina sodir etilishi mumkin. Lekin poraxo'rlik sub'ektlari qasdlarining mazmuni bir qancha xususiyatlarga ega bo'lib, ular aniqlik kiritishni talab etadi.

Shunga ko'ra pora beruvchi qasdning mazmuni ham nazariy, ham amaliy jihatdan pora olishning motivi va maqsadlari to'g'risidagi masala bilan bir xil hal qilinadi. Bu jinoyatning motivi g'arazlik, maqsadi esa – o'z xizmat faoliyati uchun qonunga xilof ravishda haq olishdir.

¹ Наумов А.В. Уголовное право. Общая часть. – М.: Бек, 1996. - 203-бет.

² Якубов А.С. Теоретические проблемы формирования правовой основы учения о преступлении. – Т., 1996. - 62-бет.



Aybdorlik to'g'risidagi masala esa murakkabroqdir. A.E.Jalinskiy fikricha mansabdorlik jinoyatlarida ayb qanday ta'riflanmasin, shunisi ravshanki, sub'ekt o'z qilmishini sodir etgan paytda uning ijtimoiy xavfliligini anglash imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Agar shaxs sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavfliligini anglamasdan, faqat uni anglash imkoniyatiga ega bo'lishi kerak deyilsa, demak u ehtiyotsizlik tufayli harakat qilgan bo'ladi. Pora olish so'zsiz mansabdorlik jinoyati. Shuning uchun masalaning bunday qo'yilishini variantlardan biri deb ko'rilishi ham mumkin emas.

Yuridik adabiyotda quyidagi fikr ustun hisoblanadi: pora olishning sub'ektiv tomoni aybdor shaxsda to'g'ri qasd borligi bilan tavsiflanadi. Bunday fikr tarafdori A.V.Kvitsinia pora olishda sub'ektning to'g'ri qasdi mazmunini ochib yozganidek, mansabdor shaxs pora olayotganini, ya'ni pora beruvchi manfaatida o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi mumkin bo'lgan u yoki bu harakatni bajarish yoki bajarmaslik uchun qonunga xilof ravishda haq olayotganini va uni olishni istayotganini anglaydi. Boshqa mualliflar ham pora olishda to'g'ri qasdning tushunchasida taxminan shunday mazmun borligini ta'kidlaydilar.

Jinoyat qonunining normasida (JKning 13-modda, 1-qism.) shunday qoida mavjudki, unda jinoyat sodir etilgan vaqt u formal yoki moddiy tarkib bilan sodir etilganligiga bog'liq holga qo'yiladi. Jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish ijro etilgan vaqtni formal tarkibli jinoyat sodir etilgan vaqt deb e'tirof etish lozim. Jinoyat qonunida nazarda tutilgan jinoiy oqibatlar yuzaga kelgan vaqtni moddiy tarkibli jinoyat sodir etilgan vaqt deb e'tirof etish lozim.

Jinoyat qonuniga binoan to'g'ri qasd shu bilan tavsiflanadiki, jinoyat sodir etgan shaxs o'z harakati yoki harakatsizligining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlarini oldindan bilgan va bu oqibatlar yuzaga kelishini istagan. JKning 21-moddasiga ko'ra, qonun to'g'ri qasd jihatining mazmunini sub'ektning sodir etayotgan jinoyatning ijtimoiy-xavfli oqibatlari vujudga kelishini istayotgani bilan bog'laydi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadi: to'g'ri qasd bilan faqat moddiy tarkibli jinoyatni sodir etish mumkin. Ular sirasiga pora olish kirmaydi.

JK 210-moddasiga binoan bu qonunda nazarda tutilgan harakatning o'zi, ya'ni mansabdor shaxs tomonidan o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda pora beruvchi manfaatida muayyan harakatlar bajarish yoki bajarmaslik uchun qonunga xilof ravishda haq olganlik jinoyat hisoblanadi. Bunda noqonuniy haqning hech bo'lmaganda bir qismi olingan paytdan boshlab jinoyat tugallangan hisoblanadi.

Bizning nazarimizda, qonun chiqaruvchi tomonidan JK 21-moddasida jinoyat tamom bo'lgan payt ijtimoiy xavfli qilmish bajarilgan vaqt deb hisoblanganligi, shuningdek, basharti uni sodir etgan shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglagan va shunday qilmishni sodir etishni istagan bo'lsa, bunday jinoyat qasddan sodir etilgan deb topilishi belgilanganligi to'g'ridir.

Adabiyotlarda ko'rsatilganidek, qasdning intellektual belgilarini jinoyatning formal va moddiy tarkiblarida kiyoslash quyidagi xulosa qilishga imkon beradi: ularning mazmuni turli. Jinoiy oqibatlari bo'lgan tarkiblarda u ancha to'liqroq bo'lib, u qilmishning ijtimoiy xavflilik xarakterini nafaqat anglashdan, balki ijtimoiy xavfli oqibatlarni oldindan ko'ra bilishdan iboratdir. To'g'ri qasdning intellektual belgisi sodir etilayotgan qilmishning haqiqiy xarakteri va ijtimoiy xavfliligini tushunish bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy xavfli oqibatlarni, shuningdek



intellektual belgining tarkibiy qismini oldindan ko'ra bilish bu oqibatlar vujudga kelishi muqarrarligiga ishonch hosil qilish bilan tavsiflanadi. To'g'ri qasdning irodali belgisi shaxs tomonidan o'z intellektual qobiliyatlari va imkoniyatlarini qo'yilgan maqsadga erishish bo'yicha niyat va istaklarni amalga oshirishga qaratilganligidan iboratdir³.

Pora oluvchi qasdning irodali jihati qonunga xilof ravishda haq olish istagidan iborat. Bu esa uning pora beruvchining o'ziga va'da qilingan va o'zi uchun maqbul bo'lgan harakatlarni bajarish istagi bilan bog'liq mumkin bo'lishi shart emas. Hatto mansabdor shaxsda dastlab bunday harakatlar bajarish istagi yoki imkoniyati yo'qligi, basharti haq mansabdor shaxs tomonidan olingan bo'lsa, pora olish tarkibini istisno etmaydi.

Mazkur jinoyat qasddan, ya'ni noqonuniy naf ko'rish maqsadida sodir etiladi. Bunday g'arazli maqsad mansabdor shaxs olingan mol-mulkni o'ziga kerakli muayyan harakatlar bajarilishi yoki u o'zi tobe bo'lgan boshqa mansabdor shaxsga topshirishga hozir bo'lgan hollarda ham istisno etilmaydi. Bunda pora oluvchi olgan haqni o'z xoxishiga ko'ra tasarruf etib, porani boshqa mansabdor shaxs topshiradi. Agar sub'ektda g'arazli maqsad bo'lmagan va aybdor shaxs barcha olingan mol-mulkni davlat yoki jamoat tashkiloti ehtiyojlariga sarf qilayotgan bo'lsa, boshqa gap. Bu yerda poraxo'rlikning asosiy belgisi, mol-mulkni o'z foydasiga olish mavjud emas. Aybdor shaxsning bu hollardagi xatti-harakatlari, bizning nazarimizda, xizmat mavqeini suiiste'mol qilish sifatida kvalifikatsiya qilinishi kerak. Shunday qilib, pora berishning sub'ektiv tomoni pora beruvchining u keltirayotgan moddiy foyda mansabdor shaxsning xizmat faoliyatiga noqonuniy haq to'lash ekanligini anglash, shuningdek bunday harakatlar sodir etish istagi bilan tavsiflanadi.

Pora berish, shuningdek, uni olish – to'g'ri qasd bilan sodir etiladigan jinoyatdir. Pora beruvchi pora berish ob'ekti va ob'ektiv tomonini tavsiflaydigan asosiy belgilarni, ya'ni: a) moddiy foyda mansabdor shaxsga pora beruvchining manfaatlarida xizmat harakatlari sodir etilishi yoki sodir etilmasligi uchun berilayotganini; b) mansabdor shaxs xizmat faoliyatiga haq to'lash noqonuniyligini, ya'ni mansabdor shaxslar xizmat faoliyatiga O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida haq to'lashning ommaviy-huquqiy xarakterini buzayotganligini anglaydi va istaydi. Mansabdor shaxsga pora beruvchining manfaatlarida xizmat harakatlarini sodir etish yoki sodir etmaslik uchun moddiy foyda keltirish pora berishning ob'ektiv tomonini tavsiflovchi zarur belgi hisoblanar ekan, pora beruvchi tomonidan bu holatlarni anglash ham bunday jinoyat tarkibi uchun majburiydir.

Pora beruvchining bu holatlarning jihatlarini anglashi talab etilmaydi. Pora berish pora topshirishni o'z zimmasiga olgan vositachi orqali amalga oshirilib, u aynan qaysi mansabdor shaxsga pora topshirilishini va aynan qanday xizmat harakatlari sodir etilishini bilmasligi ham mumkin. Pora berish tarkibi uchun bunday holatlarni umumiy jihatlarida, chunonchi mansabdor shaxsga uning xizmat faoliyatiga haq to'lash sifatida moddiy foyda berilishini anglash yetarlidir.

Moddiy foyda mansabdor bo'lmagan shaxs tomonidan ko'rilganligi yoki mansabdor shaxsning u egallagan xizmat mavqe bilan bog'liq bo'lmagan harakatlar sodir etilishi uchun foyda ko'rilganligi, shuningdek pora beruvchi mansabdor shaxsga uning xizmat faoliyatiga haq to'lash sifatida moddiy foyda keltirayotganini anglamaganligi pora berish tarkibini istisno

³Якубов А.С. Теоретические проблемы формирования правовой основы учения о преступлении. – Т., 1996. - 114-бет.



etadi. Va aksincha, moddiy foyda mansabdor deb xato hisoblangan shaxs tomonidan ko'rilganligi yoki muayyan harakatlar sodir etish evaziga keltirilganligi pora berish uchun javobgarlikni istisno etmaydi, shuningdek jinoyat tarkibining boshqa qismlari mavjud bo'lgan taqdirda bunday jinoyat sodir etishga suiqasd deb ko'rilishi kerak.

JK 211-moddasida pora beruvchi ko'zlaydigan maqsadlar aytilmaydi. Shunga qaramasdan pora beruvchida muayyan maqsadlar borligi shubha tug'dirmaydi. Pora berishning ma'nosi shaxsning xizmat faoliyatini muayyan yo'nalishda to'g'rilash yo'li bilan o'z maqsadiga erishishdan iborat. Shaxsga moddiy foyda o'z navbatida uning xizmat faoliyatidan muayyan foyda ko'rish maqsadisiz keltirilishi pora berish sifatida ko'rilmaydi. Chunki pora tushunchasi bilan bu jinoyatni, shu jumladan mansabdor shaxs xizmat faoliyatidan muayyan foyda ko'rishni tavsiflovchi barcha belgilar yig'indisi qamrab olinadi.

Pora beruvchining shaxsiy manfaatlari, u tomonidan himoya qilinadigan qarindoshlarining, o'rtoqlarining manfaatlari, shuningdek u vakili bo'lgan tashkilot, muassasa, korxonaning deb xato tushuniladigan manfaatlari pora beruvchining manfaatlari deb e'tirof etiladi.

Pora bir tashkilot vakili tomonidan boshqa tashkilotda ishlaydigan pora oluvchiga topshirilgan hollarda davlat yoki jamoat vositalari pora predmeti bo'lishi mumkin. Bunday hollarda javobgarlik to'g'risidagi masala O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999 yil 24 sentabrdagi "Poraxo'rlik ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 4-bandiga muvofiq pora berish va olish uchun javobgarlik o'zganing mulkini talon-toroj, mansab soxtakorligi, hujjatlarni soxtalashtirish va shu kabi boshqa jinoyatlar bilan bir vaqtda jinoyatlar majmui uchun jinoiy javobgarlikka tortishni mustasno qilmaydi⁴.

Pora berishning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, pora beruvchi o'z maqsadiga faoliyati muayyan mansabdorlik jinoyati belgilaridan iborat bo'lishi mumkin bo'lgan mansabdor shaxs orqali erishadi. Shu munosabat bilan bila turib mansabdorlik jinoyati sodir etish uchun pora berilgan taqdirda pora beruvchi javobgarligining hajmi to'g'risidagi masala yuzaga keladi.

Pora uchun mansabdorlik jinoyati sodir etgan mansabdor shaxs javobgarligining hajmi to'g'risidagi masala shubha tug'dirmaydi, chunki bunday xatti-harakatlar pora olish va pora uchun sodir etilgan jinoyatlarning haqiqiy majmuasi qoidalariga ko'ra kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Bila turib mansabdorlik jinoyati sodir etish uchun pora berilgan taqdirda pora beruvchining javobgarligiga kelsak, jinoyat huquqi nazariyasi va sud amaliyoti bunday hollarda pora beruvchilarning javobgarligini JKning faqat pora berish to'g'risidagi moddalari bo'yicha cheklash yo'lidan boradi.

Ayni vaqtda, agar shaxs mansabdor shaxsni xizmat bo'yicha jinoyat sodir etishga haq evaziga og'dirish orqali emas, balki boshqa vositalar yordamida, masalan, iltimos qilish, uni to'g'ri yo'ldan ozdirish, tahdid qilish va h.k. orqali majburlasa, mansabdor shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyatda bu shaxsning ishtirokchiligi (dalolatchiligi) uchun javobgarlik shubha tug'dirmaydi.

⁴O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999 yil 24 sentabrdagi "Poraxo'rlik ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/1449106>



Pora berish, pora olish sub'ektiv tomonining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida so'z yuritganda pora berish va olish, o'z yuridik tabiatiga ko'ra ishtirokchilikning zarur shakli hisoblanishini ta'kidlash lozim. Bu jinoyat sub'ektlarining faoliyati shunday mahkam o'zaro bog'langanki, shunday bir-birini to'ldiradiki, bir butunning, ya'ni ikki shaxs tomonidan sodir etiladigan pora berish-olishning, yagona jinoyatning qismi hisoblanadi.

Pora beruvchi va pora oluvchi faoliyatlarining bevosita va o'zaro bog'liqligi ayniqsa bu jinoyatning sub'ektiv tomonida ko'rinadi.

Pora olish-berish sub'ektlari qasdning mazmuni, aytib o'tilganidek, keltiriladigan va ko'riladigan foyda mansabdor shaxsning pora beruvchi manfaatlarida yo'naltiriladigan xizmat faoliyatiga noqonuniy haq to'lash hisoblanganini anglashdan iboratdir. Bu jinoyat sub'ektiv tomonining o'ziga xos xususiyati shundaki, pora beruvchi shaxs tomonidan yaratiladigan holatlar pora oluvchi shaxs tomonidan anglanishi lozim va aksincha. Sub'ektlardan biri poraxo'rlik boshqa sub'ekti xatti-harakatlarining sub'ektiv tomonini tavsiflovchi bironta tarkibiy qismini anglamasa, pora olish-berishning tarkibi istisno etiladi.

Agar pora berishning sub'ektiv tomonini tavsiflovchi holatlar faqat pora beruvchi tomonidan anglanib, moddiy foyda ko'rayotgan shaxs esa ularni anglamasa, pora beruvchining xatti-harakatlari faqat pora berishga suiqasd qilish deb ko'rilishi mumkin. Pora beruvchi pora olishning sub'ektiv tomonini tavsiflovchi holatlarni anglamasa va ular faqat moddiy foyda ko'rayotgan mansabdor shaxs tomonidan anglansa, mansabdor shaxsning xatti-harakatlariga pora olish sifatida qarash mumkin emas.

Pora olish-berish muayyan kelishuvga asoslangan o'ziga xos shartnoma hisoblanib, unga ko'ra bir shaxs (pora beruvchi) boshqa shaxsga moddiy foyda keltiradi, boshqa shaxs (pora oluvchi) esa pora beruvchi manfaatlarida shartlashilgan xizmat harakatlarini sodir etish yoki sodir etmaslik uchun haq to'lash sifatida foyda ko'radi. Sub'ektlarning bu jinoyat tarkibini tashkil qiladigan harakatlarning bajarilishini nafaqat angelayotgani, balki istayotgani ham bunday o'zaro foydali jinoiy bitimning zarur sharti hisoblanadi.

Shuning uchun pora olish-berishning tarkibi pora beruvchi mazkur tarkibni tashkil qiladigan harakatlarni nafaqat anglagan, balki istagan taqdirdagina mavjuddir. Bu harakatlarni sodir etish istagi bo'lmaganida (masalan, mansabdor shaxs tomonidan tovlamachilik natijasida pora berilganda) pora olish-berishning tarkibi mavjud emas.

Chunki JKning 211-moddasi 4-qismiga binoan pora bergan shaxs, basharti unga nisbatan pora so'rab tovlamachilik qilingan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladi. Talab qilingan haqni qabul qiluvchi shaxsning xatti-harakatlari O'zbekiston Respublikasi JK 210-moddasi 2-qismining "v" bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Yuqorida ta'kidlanganidek, bunday jinoyatlarni ochish va tergov qilish murakkabligi tufayli jinoyatni ochish va tergov qilishga faol ko'maklashgan holda pora berish to'g'risida ixtiyoriy arz qilganlik, pora beruvchi tomonidan pora oluvchi uning manfaatida sodir etgan har qanday harakatdan foydalanmaganlik, shuningdek poraxo'rlikning eng xavfli ishtirokchisi hisoblanmish mansabdor shaxs – pora oluvchini aniqlash fakti bo'yicha qonun chiqaruvchining nuqtai nazari, bizningcha, to'g'ridir.

Bundan tashqari, L.Lobanovanning fikriga ko'ra, qonun chiqaruvchining pora berishga tovlamachilik yo'li bilan majbur etilganida shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod etishning ikkinchi asosini ta'riflashga doir yondashuvi mutlaqo noto'g'ri. Chunki, aynan bir qilmish



uchun jinoiy javobgar bo'lish va jinoiy javobgarlikdan ozod etilgan bo'lish mumkin emas. Jinoiy javobgarlikdan ozod etishning asoslari faqat jinoyat sodir etilganidan keyin yuzaga kelgan holatlariga bo'lishi mumkin, qolganlari esa jinoyat sodir etilgan paytda tahlil etilayotgan tovlamachilik fakti sifatida ro'y bergan holatlar jazoni yengillashtiruvchi holatlar sifatida hisobga olinishi kerak.

Aytilganlarni inobatga olgan holda tovlamachilik yo'li bilan pora berishni talab qilishda jinoiy javobgarlikdan ozod qilish to'g'risidagi amaldagi qonun hujjatlariga ayrim qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiqdir.

Amaldagi qonun hujjatlariga binoan tovlamachilik yo'li bilan pora berishni talab qilishda javobgarlikdan ozod qilish uchun umuman sodir etilgan qilmish to'g'risida hech qanday ariza talab etilmaydi. Tovlamachilik yo'li bilan pora talab qilishda pora beruvchilar tovlamachilik faktining o'ziga ko'ra javobgarlikdan ozod etiladilar.

Bunday holatlarda pora beruvchilarni javobgarlikdan ozod etib qonun chiqaruvchi, ehtimol ularni jabrlanuvchilar sifatida ko'radi. Bu to'g'rimikin? Haqiqatan ham bu shaxslar jinoyatdan jabrlanganmi?

Ma'lumki, poraxo'rlikning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, pora pora beruvchi manfaatlarida muayyan xizmat harakatlari sodir etish yoki sodir etmaslik uchun beriladi. Ruhiiy majburlash natijasida, amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, har qanday jinoyatda tovlamachilik qilinganida holat o'zgarmaydi. Xususan tahdid ta'siri ostida tovlamachilik qilinganida umumiy qoidaga ko'ra uni sodir etgan shaxsning javobgarligi istisno etilmaydi, chunki ruhiy majburlash ta'siri ostida sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik uchun javobgarlik bu harakat yoki harakatsizlik oxirgi zarurat holatida sodir etilgan deb e'tirof etilgandagina istisno etilishi mumkin. Poraxo'rlikda nima o'zgaradi? Nima uchun pora bergan (ya'ni jinoyat sodir etgan) shaxs tovlamachilik (ya'ni ruhiy majburlash) natijasida sodir etgan jinoyati uchun jinoiy javobgar bo'lmasligi kerak?

Pora tovlamachilik yo'li bilan talab qilingan shaxs, basharti u bunda o'zi uchun muayyan foyda ko'zlamagan bo'lsa, porani bermas edi. Agar u talab qilinayotgan porani berib, bu holatni hatto yashirayotgan bo'lsa, uning bundan manfaatdorligi shubha tug'dirmaydi. Bu jinoiy bitimdan u (hech bo'lmasa bilvosita) manfaatdor bo'lsa, jinoyatning sodir etilishida aybdor bo'ladi. Chunki jabrlanuvchi o'ziga qarshi sodir etilayotgan jinoyatdan manfaatdor bo'lishi zarurati yo'q.

Agar mansabdor shaxs talab etgan porani bergan shaxs bu holatni yashirsa, demak u o'zini jabrlanuvchi deb hisoblamaydi, chunki, jabrlanuvchi hech narsani yashirmaydi. Shuningdek, amaldagi qonun hujjatlarida bo'lganidek, uni sun'iy ravishda jabrlanuvchi qilish lozim emas.

Tovlamachilik natijasida pora bergan shaxslarni avtomatik ravishda javobgarlikdan ozod qilish jinoiy javobgarlikdan ozod etish shartlari vazifalarining nuqtai nazaridan ham noto'g'ri. Chunki, bu unga nafaqat mos emas, balki ziddir.

Tovlamachi talab qilgan porani bergan shaxslarni javobgarlikdan ozod etishda pora beruvchi amaldagi qonun hujjatlariga binoan jinoyatchi emas, balki "jabrlanuvchi" ekanligini bilib, sodir etgan jinoyati uchun javobgarlikdan qo'rqmaydi, shuningdek huquqni muhofaza qilish organlariga bu to'g'rida arz qilish orqali javobgarlikni o'zidan soqit qilish haqida o'ylamaydi, natijada jinoyat ochilmay qoladi. Va aksincha, agar pora beruvchi o'zini



“jabrlanuvchi” deb hisoblamasdan, o‘ziga ma’lum bo‘lgan jinoyat haqida xabar berishni o‘z huquqiy vazifasi deb bilsa, bu jinoyat ochilgan bo‘lardi. Masalaning bunday qo‘yilishi poraxo‘rlik to‘g‘risidagi ishlar ochilishini ancha yengillashtirar edi.

Tovlamachilik natijasida pora bergan shaxslarni javobgarlikdan ozod etish boshqa fikrlarga ko‘ra ham asossizdir.

Mansabdor shaxsning faoliyatini unda tovlamachilik belgilari mavjudligi nuqtai-nazaridan baholash sud muhokamasining murakkab masalalaridan biridir. Porani tovlamachilik yo‘li bilan talab qilishda, ya‘ni kvalifikatsiya qilingan turdagi jinoyatni sodir etganlikda aybdor mansabdor shaxs qattiqroq javobgarlikdan qochish maqsadida aksariyat hollarda tovlamachilik faktini inkor etishga o‘rinadi. Pora berganlikda ayblanayotgan shaxs esa buning aksini ta‘kidlashga harakat qiladi. Chunki u javobgarlikka tortilsa, u jazodan qochishning faqat bitta imkoniyatiga, ya‘ni u tovlamachilik “qurboni” ekanligini ta‘kidlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ushbu eng qiyin isbotlanadigan va ayni vaqtda o‘ta jiddiy holatni aniqlash odatda taraflar kurashida ishning barcha holatlarini sinchkovlik bilan o‘rganish orqali amalga oshiriladi. Bu masala bo‘yicha yakuniy xulosalar sud hukmida bayon etiladi.

Amaldagi qonun hujjatlariga binoan sudning bu o‘ta murakkab va mas‘uliyatli vazifasi. Aslida u tergovchi tomonidan ishning dastlabki tergov qilinishi bosqichida bajariladi. Tergovchining yakka o‘zi o‘z xoxishiga ko‘ra bu masalani hal qiladi. Bunda tergovchining xato qilishi, shuningdek uning xolis emasligi ehtimoli istisno etilmaydi. Bularning barchasi sud tomonidan to‘g‘rilanadi, lekin bu xatolarni tuzatishga, ayniqsa tergovchi tomonidan “jabrlanuvchilar” deb e‘tirof etilgan pora beruvchilarni javobgarlikka tortish zarurati bilan bog‘liq holda ishning qo‘shimcha tergovga yuborilganida vaqt va mehnat sarflanadi.

Pora berish-olishda vositachilik qilish jinoyati to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladigan jinoyat bo‘lib, shuning uchun sub‘ektiv tomondan vositachining faoliyati ushbu jinoyat tarkibini tashkil qiluvchi harakatlar sodir etishni anglaganlik va istaganlik bilan tavsiflanadi. Shaxsda bu holatni anglash yo‘qligi aybdorlikni va shu tariqa vositachilik uchun javobgarlikni istisno etadi.

Masalan, agar fuqaro A. o‘z tanishi bo‘lmish, fuqaro B. iltimosiga ko‘ra uni fuqaro V. bilan tanishtirib, bunda o‘z xatti-harakatlari bilan u aslida pora olish-berish sodir etilishiga ko‘maklashganligini anglamagan bo‘lsa, unda fuqaro A. xatti-harakatlarida pora olish-berishda vositachilik qilish tarkibi bo‘lmaydi.

Pora berish-olishda vositachilik qilishning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, vositachi – bu boshqa shaxslar, xususan pora beruvchilar tashabbusi va topshirig‘iga ko‘ra harakat qiladigan shaxsdir. Shuning uchun boshqa shaxsni pora olish yoki berishga undagan va so‘ngra vositachi rovida bo‘lgan shaxs pora olish-berishda vositachilik qilgani uchun emas, balki pora berish yoki olishda ishtirokchilik (dalolatchilik) uchun uning maqsadini, kim tomonida va kimning tashabbusi bilan harakat qilayotganini hisobga olgan holda jinoiy javobgarlikka tortilishi lozim.

Poraxo‘rlik sub‘ektlariga ko‘maklashishda vositachi ko‘zlagan maqsadi turli bo‘lishi mumkin va jinoyat tarkibi uchun ahamiyatga ega emas.

Sud amaliyotida mansabdor shaxsga pora sifatida topshirish uchun olingan summaning bir qismi aslida vositachi tomonidan o‘zlashtirilgan hollar (soxta vositachilik) uchraydi.



O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Poraxo'rlik ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 15-bandiga muvofiq bu qilmish firibgarlik deb kvalifikatsiya qilinishi kerak. Boyliklarni qo'lga kiritish maqsadida pora beruvchi ular tomonidan pora berishga og'dirilgan taqdirda, aybdorning harakatlari firibgarlikdan tashqari pora berishga qiziqtiruvchi tariqasida qo'shimcha tavsiflanishi kerak. Pora beruvchining harakati bunday hollarda pora berishga suiqasd deb tavsiflanishi lozim bo'ladi. Bu o'rinda pora berilishi mo'ljallangan muayyan mansabdor shaxs aytilgan-aytilmaganligining ahamiyati bo'lmaydi.

Shunday qilib, pora olish-berishda vositachilik qilish sub'ektiv tomondan shaxsning o'z xatti-harakatlari bilan pora olish-berish sodir etilishining imkoniyatini amalda yaratayotganini yoki bu jinoiy kelishuv tuzilishiga ko'maklashayotganini anglashi, shuningdek bu harakatlar sodir etilishini istashi bilan tavsiflanadi.

Poraxo'rlik – murakkab jinoiy faoliyat bo'lib, uning xususiyati jinoyatning ikkita, vositachini hisobga olganda esa uchta sub'ekti mavjudligidan iborat. Ularning birgalikdagi faoliyati tugallangan jinoyatni – pora berish-olishni tashkil qiladi.

Poraxo'rlik sub'ekti 16 yoshga to'lgan, aqli raso shaxs bo'lishi mumkin. Agar har qanday shaxs pora beruvchi yoki pora olish-berishda vositachi bo'lishi mumkin bo'lsa, JK 210-moddasiga binoan pora olish faqat mansabdor shaxs tomonidan sodir etiladi.

Amaliyotda pora olishning sub'ekti haqidagi masalani hal qilishda ba'zan qiyinchiliklar yuzaga keladi. Uni noto'g'ri ta'riflash ko'pincha sud xatolariga olib keladi, bu esa pora olish sub'ektlarini ta'riflash bilan bog'liq masalalarni yanada nazariy jihatdan ishlab chiqish zaruratidan darak beradi. Jinoyat qonun hujjatlarini tahlil qilish zaruratini belgilaydigan omillar orasida mansab jinoyatlari uchun javobgarlikni nazarda tutadigan normalarni O'zbekistonda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlardan kelib chiqqan holda muvofiqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoyat sodir etilgan paytda 18 yoshga to'lgan shaxs O'zbekiston Respublikasi JKning 17-moddasiga muvofiq, mansabdorlik jinoyatlarining sub'ekti bo'lishi mumkin. Shaxsning jinoiy javobgar bo'ladigan yoshga yetganligi qonunda bu yoshda shaxs sodir etgan jinoyatning ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini qanchalik to'g'ri baholashi, davlat yoki jamiyat boshqaruvi sohasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarga yetkaziladigan zararni qanchalik anglashi mumkinligini hisobga olgan holda belgilangan.

Biroq, JK 192⁹, 192¹⁰-moddalarida nazarda tutilgan jinoyat sub'ekti o'n olti yoshga to'lgan, o'z manfaati yoki boshqa shaxslar manfaatini ko'zlab harakat qilgan, har qanday aqli raso shaxsdir.

Shuni aytish kerakki, pora olish sodir etilishi aqli noraso bo'lgan shaxslar uchun xos bo'lgan ijtimoiy xavfli qilmishlarga kirmaydi. Shunga qaramasdan mansabdorlik jinoyati hisoblangan qilmish aybdor o'z oldiga qo'ygan maqsadlar mantiqqa to'g'ri kelmasligi, erisholmasligi yoki mutlaqo qilmishga xos emasligi bilan tavsiflansa, bu holda uning aqli rasoligi haqidagi masalani aniqlash uchun qonunda nazarda tutilgan choralar ko'rilishi kerak.

Mansabdor shaxs pora olishning sub'ekti bo'lishi mumkin bo'lib, uning tushunchasi Jinoyat kodeksining sakkizinchi bo'limida yoritilgan. U tashkiliy boshqaruv va ma'muriy-xo'jalik vakolatlariga ega bo'lgan, ammo javobgar mansabdor shaxs vakolatiga ega bo'lmagan shaxs sifatida belgilanadi.



O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida mansabdor shaxsga quyidagicha ta'rif beriladi: "doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo'yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat'i nazar, korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda tashkiliy-boshqaruv, ma'muriy-xo'jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxs, xuddi shuningdek xalqaro tashkilotda yoxud chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma'muriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs".

Bu normaning tahlili mansabdor shaxsning asosiy baholash belgilarini ajratishga imkon beradi. Ulardan ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

A.V.Galaxova ta'kidlaganidek, mansabdor shaxsni ta'riflashda boshqaruv vazifalarini, ya'ni ma'muriy boshqaruv va tashkiliy-xo'jalik vazifalarini ko'rsatish "moddiy" belgi (keng ma'noda) hisoblanadi⁵. Shaxsda bunday vazifalar bo'lmagan taqdirda uni mansabdor deb topish istisno etiladi. Bunday huquqlar, vakolatlar, vazifalarning asosiy negizi shaxsning muayyan mansabga ega ekanligi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi mansabga egalikni mansabdor shaxsning belgisi sifatida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmaydi.

Yuridik adabiyotda mansabdor shaxs tushunchasini asossiz kengaytirishga urinishlar uchraydi. Masalan, N.I.Korjanskiy mansabdor shaxslar qatoriga "rahbarlik lavozimlarini egallamagan, lekin tashkilot nomidan fuqarolar yoki davlat yo jamoat tashkilotlari uchun muayyan huquqlar yoxud majburiyatlarni vujudga keltiradigan, yuridik ahamiyatli harakatlar sodir etishga vakolatli bo'lgan shaxslar"ni kiritadi⁶. Uning fikriga ko'ra, bu mansabdorlik jinoyatlari uchun o'z ma'muriy-boshqaruv yoki tashkiliy-xo'jalik vazifalarini bajarmagan shifokorlar, sotuvchilar, o'qituvchilar va boshqa shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish imkonini beradi. Mansabdor shaxslarni e'tirof etish chegarasini yo'q qiladigan bunday taxmin bilan rozi bo'lish mumkin emas. Bunda umuman mansabdorlik jinoyatining xususiyati yo'qoladi, qonun hujjatlarida uning yuqori ijtimoiy xavfliligi o'z aksini topmaydi.

Shaxsni mansabdor, deb topish uchun uning zimmasiga yuklangan vakolatlarini ijro etishdagi vaqt oraliqlari, ya'ni u mansabni doimo yoki vaqtincha egallashi ahamiyatga ega emas.

Mansabdor shaxslar tayinlash bo'yicha yoki saylanish natijasida tegishli mansabga ega bo'ladilar. Sanoat, savdo, ta'lim, sog'liqni saqlash korxonasi, muassasa va tashkilotlarining rahbarlari odatda tegishli buyruq bilan tayinlanadilar. Hozirgi vaqtda ular mehnat jamoalari tomonidan saylanishlari ham mumkin.

Maxsus vakolatlarni shunga vakolatli bo'lgan organlar yoki mansabdor shaxslar (odatda rahbarlar), mehnat jamoalari (umumiy majlisi) beradi. Maxsus vakolat buyruq, mehnat shartnomasi, ishonchnoma, mehnat jamoasi qarori va shu kabi hujjatlar orqali rasmiylashtiriladi.

⁵ Галахова А.В. Должностные преступления. – М.: Российская правовая академия, 1998. - 6-7-бетлар.

⁶ Махонин В.М. Служба и служащие в Российской Федерации: правовое регулирование. – М., 1997. - 39-бет; Новоселов В.И. Должностные лица организации. //Становление правового порядка в Российском государстве: реальность и перспектива. – Саратов, 1995. - 90-92-бетлар.



Yuridik adabiyotda va amaliyotda tashkiliy boshqaruv majburiyatlarini boshqa kishilar faoliyatiga, ish ishtirokchisiga, ishlab chiqarish jarayoniga rahbarlik qilish deb tushunish singib ketgan. Tashkiliy majburiyatlarni amalga oshirish⁷ – bu jamoat ishlab chiqarishida alohida jamoalar va ijtimoiy guruhlar faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solish bo'yicha harakatlardir. Ijtimoiy tashkillashtirish odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning barcha sohalariga ta'sir etishning turli mexanizmlarini nazarda tutadi. Bu mexanizmlar jamoat ishlab chiqarishida, xo'jalik qurilishida barcha fuqarolar ishtirokining zarur zaminini yaratadi. Jamoat nazorati turli shakllarining tizimi, sanksiyalarning tizimi yordamida ular alohida shaxslar harakatlarini yo'l qo'yiladigan, ijtimoiy foydali tomonga qaratadilar.

Shunday qilib, tahlil qilinayotgan masala bo'yicha jinoyat-huquqiy normalarni, turli nuqtai nazarlarni, sud va xalqaro tajribani umumlashtirish shuni ko'rsatmoqdaki, davlat tuzilmalarining tashkiliy boshqaruv va ma'muriy-xo'jalik vazifalariga ega bo'lgan barcha xodimlarini mansabdor shaxslar sifatida e'tirof etish asoslidir.

⁷ Ахраров Б., Оқйўлов О. Фермер мансабдор шахси?//Инсон ва қонун. 2002 й. 5 март.